



SATRLAR QATIDA O‘RMALAYOTGAN CHUMOLILAR...

(Tilak Jo‘raning ba’zi she’rlari tadqiqi)

Rasulova Saida Hikmat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Tilak Jo‘ra she’rlarida chumoli obrazi va o‘xshatishlari o‘rin olgan she’rlar tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the poems of the poet Tilak Jora that contain the image of an ant and similes.

Kalit so‘zlar: chumoli, yo‘l, boychechak, original o‘xshatish, obraz yaratish uslubi

Key words: ant, road, flower, original simile, method of image creation

Shoir Tilak Jo‘ra ijodining mavzu ko‘lami va undagi har bir obraz o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shoir ijodining serjilo badiiy olami kitobxonni jalb etaveradi. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov shoir haqida: “Tilak — katta shoir edi, o‘ziga xos uslubi, obrazlar olami bor uning, O‘zbekistonning oltin boshhoqlari, loyshuvoq tomlarda ochilgan qizg‘aldoqlari, xullas, betakror manzalari chizilgan. She’rlarining barchasida bir hazin va ayni vaqtda dilni yayratadigan ohangni sezasiz [2: 131.]”, — deb ta’kidlaydi.

Haqiqatan, shoir she’rlarining har birida o‘zgacha ohanglar mavjud. U majoziy obrazlar yordamida hayot haqiqatini yorqin ifodalaydi. Ijodkor she’riyatida chumoli obrazi va u bilan bog‘liq o‘xshatishlar aks etgan ayrim o‘rinlarga e’tibor qaratsak:

*Yerni silkib avtolar chopar,
Chumoliday tun-kun o‘rmalab.
Butun shahar tinmayin chekar
Ufqlarni tumanday o‘rab.*



*Yo 'liqqanday og'ir bir dardga,
Bo'z yer kabi ko'pchir ko'kragim.
G'ala-g'ovur katta shaharda
Qizib ketgan yo'ldir yuragim...*

Ushbu she'r shoirning "Sanduvoch" nomli to'plamidan o'rin olgan bo'lib, unda insonning ruhiy kechinmalari yaqqol gavdalangan, deyish mumkin. She'rda avtomashinalar harakati chumolilar o'rmalashiga, ufqning qizargan holati tamaki cho'g'lariga o'xshatilmoqda. Kech tushib, quyosh botayotganda ufqning qirmizi rangga kirishini, albatta, kuzatgansiz. Shoir *"Butun shahar tinmaydin chekar ufqlarni..."* ifodasi orqali umrning to'xtovsiz, tinimsiz o'tib borishini obrazli tafakkur kuchi bilan chizib beradi. Ya'ni quyoshning har botishi, poyoniga yetgan har bir kun — chekib tugatilayotgan tamakilardek go'yo.

Keyingi misralarda muallif o'zini bir dardga chalingandek his etayotgani haqida aytadi. Chindan ham, shiddatkor umrni aqalli bir lahzaga ham to'xtatib turishni uddalay olmaslik eng katta dardlardan bo'lsa, ajab emas. Ehtimol, ana shu dardning zalvaridandir, shoir o'z yuragini qizib ketgan yo'lga o'xshatadi. Buni she'rning birinchi bandi bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ijodkorning yuragi yerni silkib chopayotgan, tun-u kun chumolidek o'rmalayotgan ulovlarning g'ildiraklari ostida qolib ketgan yo'lga mengzatilganini anglaymiz.

Keyingi she'r ham "Sanduvoch" to'plamidan o'rin olgan:

*Boychechakdan oldin,
Turnalardan oldin,
Bahorni qarshilab
Paxsa devor ostidan
Chiqar chumoli.*



*Yuzlariga sepkil toshgan qizday
Hovlimizning yuziga toshar chumoli.
Chumolidan ham oldin
Bahorni qarshilab,
Yuragimda g'ivirlar
Ko'zlarimda ochilgan
Boychechaklar...*

She'rdagi bahor kelishi bilan hammadan avval chumolining bahorga peshvoz chiqishiga urg'u berilmoqda. Uning ko'klam elchisi bo'lgan boychechakdan ham, turnadan ham oldin paxsa devorlar orasidan chiqib kelishi tasvirlyapti.

Shoir ko'klamning dastlabki kunlaridan chumolilarning o'z inlaridan chiqib, hovli yuzida o'ramalab yurishini bo'y qizlarning yuzlariga toshgan sepkillarga o'xshatib, nihoyatda ohorli, original va go'zal tashbeh yaratgan. Bu o'xshatishning ta'siri xayolingizdan ketmay turib, keyingi satrlarni o'qishda davom etar ekansiz, bir entikib olishingiz tayin. Chunki bahorni hammadan erta qarshilaydigan mehnatkash chumolilardan-da avval ijodkorning ko'zlaridagi intiqlik, sog'in boychechaklari ko'klamga o'z bag'rini ochishi aytilgan bu satrlarda.

Tilak Jo'raning "Ruhiyat" she'riy to'plamidan o'rin olgan "Munojoti Mansur" dostonida ham Chori chol obraziga yonma-yon tarzda chumoli obrazi borligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim T. Boboyev ta'kidlaganidek: "Obraz — san'at asaridagi inson tasviri. Biroq shuni ham esda tutish kerakki, obraz atamasining o'zi ham keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Keng ma'noda qo'llanilganda obraz tushunchasi doirasiga inson tasviridan tashqari, peyzaj, detallar, buyumlar, jismlar, hayvonot dunyosi, badiiy tasvir vositalari va hokazolar tushuniladi. Tor ma'noda qo'llanilganda esa faqat inson hayotining badiiy manzalari anglashiladi, xolos... [1: 337.]".



“Munojoti Mansur” dostonida Chori chol — farzandlari va kampirini tuproqqa qo‘ygan, yolg‘iz qolgan ota hamda tobelikda butun umri mehnatda o‘tgan, ammo rohatini ko‘rmagan o‘zbek xalqining umumlashma obrazi sifatida namoyon bo‘ladi:

*Chori cholning o‘g‘illari ko‘p edi,
Birini sil oldi,
Birini sitam,
Birini afg‘on oldi,
Ketmon dastasiga qo‘llari ilonday chirmashib,
Ilonday to‘lg‘anib-to‘lg‘anib jon bergan,
G‘o‘zalarga
Qon bergan —
Kenjasi edi Chori cholning!
Endi u ham yo‘q,
Yo‘q endi Chori cholning Oysha kampiri...*

Bir qarashda, qo‘llari mehnatda qabargan, tinim bilmagan Chori chol ko‘pchilik qatori oddiy insondek ko‘rinadi, farzandlarini yo‘qotishi esa uning achchiq qismatiga yozilgandek. Lekin uning farzandlari o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qurbon ketgan. Davrning qoloqligi, millatimiz vakillarining odam o‘rnida ko‘rilmagani, tibbiyot rivojlanmagani sabab birini sil olgan, yana biri, ehtimol, qiyinchiliklardan, balki, qashshoqlik, qaramlikdan sitamga cho‘mib nobut bo‘lgan, biri “Afg‘on urushi”da jon bergan, kenjasi ham paxta dalalaridan beri kelmay omonatini topshirgan, qaydam, “Paxta ishi” sabab bo‘lgandir uning o‘limiga.

Qiziq jihati shundaki, dostonida farzandlari va kampiridan judo qolgan cholning atrofida doimiy ravishda chumolilar tasvirlanadi:



*... Chori cholning
Ko 'zlari xiyol ochiq,
Lablari xiyol ochiq,
Ko 'kragida g 'ivirlar
Nafasga zor chumolilar...*

Yoki:

*Chori chol
Chumoli bilan
So 'lg 'n-so 'lg 'in xayoli bilan,
Unsizgina qiladi suhbat:
— Chumoliga yaxshi, torgina kavakda
Mingtasi yashar,
Eh, chumoli ham bo 'lolmadim,
Chumolining chumolilari bor,
O 'rmalar-o 'rmalar,
G 'ivirlar-g 'ivirlar,
Hasratini bir-biriga shivirlar...*

Sezgandirsiz, Chori chol yolg'izlikda o'zini chumolilardan ham baxtsiz his qilmoqda.

Gap shundaki, doston qahramoni bo'lgan bobo ham, chumolilar ham timsiz mehnat qiladi. Lekin... Chumolilarning odamlardan farqi shundaki, ular — ahil, “*torgina kavakda mingtasi*” yashaydi, odamlardek qirpichoq bo'lmaydi, odamlardek bir-birining ustidan hukmronlik qilmaydi.



Bu o'rinda ijodkor yana xalqimizga ko'p aziyat yetkazgan sobiq mustamlaka tuzumni qoralab, odamlarning hatto chumolichalik qimmatini bo'lmaganini ham ko'rsatishga uringan bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz.

Quyidagi misralarga e'tibor qaratsak:

*Chori chol ko'zlarini yumib
Ostonasida o'ltirar,
Tizlarini ishqalab,
Tomog'ida nimadir chopar.
Kipriklariga o'rmalar oppoq chumoli,
O'rmalar yuzlariga
Chori cholning qadrdon chumolilari...
Yuzlaridagi chumolilarni sachratib
Esar shamol...*

Tan olib aytganda, anglanishi birmuncha qiyin bo'lgan tasvir. Anglashimizcha, bu satrlarda doston qahramonining yig'layotgani aks ettirilgan. Ayniqsa, "Yuzlaridagi chumolilarni sachratib esar shamol" ifodasidagi "sachratib" so'zi shunday xulosa qilishimizga asos bo'lsa oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dostonda xalqimizning og'ir o'tmishi o'z aksini topgan. Asarga chumoli obrazining kiritilishi uning yanada ta'sirchan va ajoyib badiiyatga ega bo'lishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, shoir Tilak Jo'ra o'zining badiiy obraz yaratish mahorati, betakror tashbehlari, mazmundor satrlari va o'ziga xos ifoda uslubi bilan adabiyotimizda muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] — Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari// O‘zbekiston. — Toshkent, 2002. — B. 337.
- [2] — Hamroyeva M. Erta so‘ngan yulduzlar // Sharq. — Toshkent, 2004. — B. 131.
- [3] — Tilak Jo‘ra. Saylanma // Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. — Toshkent, 2011. — B. 288.